Migratsiya hisobi manzili — bu siz haqiqatan **yashayotgan joy**: u yerda uxlaydigan, ovqatlanadigan, dam oladigan va shaxsiy buyumlaringizni saqlaydigan manzil.

Dastlab migratsiya hisobi Rossiyaga kirgan kundan boshlab 90 kundan oshmagan muddatga rasmiylashtiriladi. Keyinchalik u kirish maqsadiga qarab uzaytiriladi:

- **ish maqsadida bo'lsa** — patent amal qilish muddatiga qadar
- **ta'lim maqsadida bo'lsa** — o'qish muddati tugaguncha

Ota-onalar 18 yoshgacha bo'lgan bolalarining migratsiya hisobini o'z yashash manzili bo'yicha, o'z ro'yxatdan o'tish muddati bilan bir xil muddatga uzaytirishlari mumkin.

Davlat boji:

- migratsiya hisobiga qo'yish uchun — 500 rubl
- migratsiya hisobini uzaytirish uchun — 1000 rubl

Qayerga murojaat qilish kerak

Rossiyaga kirgandan keyingi birinchi migratsiya hisobini qabul qiluvchi tomon ishtirokida rasmiylashtirish mumkin:

- «Госуслуги» portali orqali gosuslugi.ru/
- «Почты России» bo'limida <https://www.pochta.ru/contacts/29>

- yashash hududingizdagi МФЦ «Мои документы» telefon: **8 (800) 600 79 29**
<https://portal.mfc.gosuslugi29.ru/>
- yashash hududingizdagi отдел по миграции МВД России

Blankalar va to'ldirish namunalarini quyidagi manzildan yuklab olishingiz mumkin:



<https://29.мвд.рф/госуслуги-новая/гувм/миграционный-учет/blankи-и-образцы-заявлений>



Migratsiya hisobini uzaytirishni oldindan amalga oshirish kerak — amaldagi ro'yxatdan o'tish muddati tugashidan avval!

Buni qabul qiluvchi tomon ishtirokida, отделе по миграции МВД России в районе проживания.bajarish lozim. Qabulga yozilish — «Госуслуги». portali orqali amalga oshiriladi.

Migratsiya hisobini o'z vaqtida yangilamaslik uchun javobgarlik:

- chet el fuqarosi uchun — 5 000 dan 7 000 rublgacha jarima va Rossiya Federatsiyasiga 5 yilga kirish taqiqi;
- qabul qiluvchi tomon uchun — 2 000 dan 4 000 rublgacha jarima.



Migratsiya hisobi blankasining ajratib olinadigan qismini doimo o'zingiz bilan olib yurishingiz kerak.

Agar siz migratsiya hisobi varaqasini yo'qotgan yoki shikastlagan bo'lsangiz, uni tiklash uchun sizda

uch ish kuni mavjud. Buning uchun отделение по вопросам миграции МВД России murojaat qiling:
<https://29.мвд.рф/ms>

«Госуслуги» portali — shaxsiy kabinet yaratish



Davlat xizmatlaridan va mobil aloqa xizmatlaridan foydalanish uchun siz rasmiy davlat portali *Gosuslugi.ru* da shaxsiy kabinet yaratishingiz kerak bo'ladi.

Bajarish tartibi:

1-qadam. Ro'yxatdan o'tish (registratsiya)

- Sahifaga o'ting: esia.gosuslugi.ru/login/registration → «Другой способ регистрации» bandini tanlang.
- Familiya, ism, otangizning ismini va elektron pochta manzilingizni kiriting.
- Agar sizda Rossiya telefon raqami bo'lsa, uni ham kiriting.
- Elektron pochtagizni tekshirib, «Госуслуг». dan kelgan xatdagi havola orqali o'ting.
- Agar telefon raqamini ko'rsatgan bo'lsangiz, SMS orqali kod yuboriladi — ushbu kodni «Gosuslugi» saytida kiriting.
- O'zingiz uchun maxfiy parol yarating.

2-qadam. Shaxsiy ma'lumotlarni tasdiqlang

- Shaxsiy hisob raqami uchun sug'urta raqamini — СНИЛС oling va kiriting. Uni Социальный фонд РФ es.pfr.ru/findOffice/ yoki RuID ilovasi orqali olish mumkin.
- Pasport ma'lumotlarini kiriting.

3-qadam. Shaxsni tasdiqlang

- Rossiya telefon raqamini ulangan holda tasdiqlang.
- Agar sizda Rossiya banki kartasi bo'lsa, shaxsni onlayn bank orqali tasdiqlang; yoki shaxsan xizmat ko'rsatish markazida tasdiqlang: map.gosuslugi.ru/?layer=co.

Biometrik ro'yxatdan o'tish

Biometrik ro'yxatdan o'tish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barmoq izlarini olish (daktiloskopiya)
- fotosuratga tushirish

 Bu tartib 6 yoshdan katta barcha chet el fuqarolari uchun majburiy hisoblanadi.

Jarayondan o'tgandan so'ng sizga “yashil karta” beriladi.

Rasmiylashtirish muddati:

- **kirish sanasidan 30 kun** — ishlash maqsadida kelgan shaxslar uchun
- **kirish sanasidan 90 kun** — boshqa chet el fuqarolari uchun

Arxangelsk shahrida biometrik ro'yxatdan o'tish manzili:
<https://pvsmvd.ru/branches/29>

Tibbiy ko'rik

Tibbiy ko'rik 6 yoshdan katta barcha chet el fuqarolari uchun majburiy hisoblanadi.

Rossiyaga kirganidan keyin tibbiy ko'rikdan o'tish muddati:

- **kirish sanasidan 30 kun** — ishlash maqsadida kelganlar uchun;

- **kirish sanasidan 90 kun** — boshqa chet el fuqarolari uchun.

 Tibbiy ko'rikdan har 12 oyda (yiliga bir marta) o'tish talab etiladi!

Ko'rik davomida quyidagilar tekshiriladi:

OITS (VICH) va boshqa ijtimoiy xavfli kasalliklar (masalan, sifilis, sil), giyohvandlik moddalari iste'moli.

Agar VICH yoki giyohvandlik aniqlansa, shaxs Rossiyanı tark etishi shart!

Agar sifilis yoki sil (tuberkulyoz) aniqlansa, darhol davolanish kursini o'tishi va keyin takroriy ko'rikdan o'tishi zarur.

Arxangelsk shahrida tibbiy ko'rikdan o'tish joylari:

- ГБУЗ АО «Архангельский клинический кожно-венерологический диспансер» <https://www.akkvd.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская клиническая психиатрическая больница» <https://akpb-talagi.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельский клинический противотуберкулезный диспансер» <https://med-disp-akptd-r29.gosweb.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская городская клиническая больница N 4» <https://agkp2arh.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская городская клиническая больница N 6» <https://arhgkb6.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская городская клиническая больница N 7» <https://solombalacare.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская городская клиническая поликлиника N 1» <https://arhgp1.gosuslugi.ru/>
- ГБУЗ АО «Архангельская городская клиническая поликлиника N 2» <https://agkp2arh.gosuslugi.ru/>

Ishlash uchun patent

Kimlar patentsiz ishlashi mumkin

- **Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOI) mamlakatlari fuqarolari** — Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston: ularga migratsiya hisobi va biometrik ro'yxatdan o'tish talab etiladi.
- **Oliy o'quv yurtlari va kollejlari talabalari**, agar kunduzgi shaklda o'qiyotgan bo'lsa, darsdan bo'sh vaqtda ishlashi mumkin. Buning uchun talaba bileti va o'qish joyidan ma'lumotnoma kerak
- **Rossiyada vaqtincha yashovchi chet el fuqarolari: vaqtincha yashash ruxsati (ВПД).talab etiladi.**
- **Doimiy yashovchi chet el fuqarolari: yashash guvohnomasi (ВНЖ).bo'lishi shart.**
- **Qochqinlar va vaqtincha boshpana olgan shaxslar** ham patentsiz ishlash huquqiga ega.

Quyidagi mamlakatlar fuqarolari uchun patent majburiy: Ozarbayjon, Moldova, Tojikiston va O'zbekiston. Bu mamlakatlar fuqarolari qonuniy tarzda ishlash uchun patent olishlari shart.

Patent olish tartibi va muddati:

- **Rossiyaga kirgan kundan boshlab 30 kun ichida**
- **faqat ФГУП «ПВС МВД России»**
pvs.mvd.ru/branches/29
- murojaat qilganda to'lov uchun rekvizitlar ko'rsatilgan kvitansiya beriladi.

Patent berish uchun davlat boji — **4 200 rubl.**

Patent rasmiylashtirish uchun hujjatlar **kirgan kundan boshlab 30 kun ichida** topshirilishi kerak.

 Patentni o'z vaqtida rasmiylashtirmaganlik uchun jarima – **10 000 dan 15 000 rublgacha.**

Patent olish uchun pasportning notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimasi talab etiladi.

 Patent bo'yicha faqat u rasmiylashtirilgan hududda va unda ko'rsatilgan bitta kasb bo'yicha ishlash mumkin.

2025-yilda Arxangelsk viloyatida patent uchun oldindan to'lov (avans) — oyiga **5 292 rubl.**

To'lovni oldindan 1 oydan 12 oygacha muddat uchun amalga oshirish mumkin

Ishlash uchun patent olinganidan keyin **2 oy ichida**, siz ishga joylashganlik to'g'risidagi bildirishnomani va mehnat shartnomasining nusxasini Управление по вопросам миграции МВД России, yuborishingiz shart. Agar bu talab bajarilmasa, patent haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Patent olish uchun zarur hujjatlar ro'yxatini, shuningdek patent berish haqidagi ariza, blankalar va bildirishnoma namunalarini quyidagi manzildan yuklab olishingiz mumkin:



<https://29.mvd.rf/госуслуги-новая/гумвм/патент/бланки-и-образцы-заявлений>

Rus tilini bilish testi



Ishlash uchun patent olishdan oldin, siz rus tili, Rossiya tarixi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslari bo'yicha test sinovidan o'tishingiz kerak.

Test narxi – **3 800 rubl**.

Testdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng sertifikat beriladi, uning amal qilish muddati **3 yil**.

Arxangelsk shahrida test topshirish manzili:



https://narfu.ru/hssshic/mezhdunarodnaya-deyatelnost/russian_test/exam/

Testga tayyorgarlik ko'rish uchun:

- Onlayn kurs «Русский для жизни и работы» — migrant.spbu.ru
- Namunaviy testlar — testingcenter.spbu.ru/images/files/kompleksnij_ekzamen_IR.pdf
- Rasmiy tayyorlov materiallari — inostr-exam.fipi.ru/xmodules/qprint/index.php

ARXANGELSK VILOYATIDA ISH

Ishni qayerdan izlash mumkin

Rasmiy ish beruvchilar takliflarini o'z ichiga olgan foydali veb-saytlar:



«Работа России» trudvsem.ru/vacancy/search?_regionIds=7800000000000



Архангельский областной центр занятости населения: **8 (818) 243 50 02**
<https://aoczn.ru/>

Foydali maslahatlar:

- Ishni to'g'ridan-to'g'ri qidiring, vositachilarga murojaat qilmang;
- Ish beruvchi bilan rasmiy mehnat shartnomasini tuzing;
- Shartnomada ish haqi miqdori va to'lash tartibini aniq ko'rsating;
- Shaxsiy hujjatlaringizni ish beruvchiga saqlash uchun bermang;
- Xodim va ish beruvchining huquq hamda majburiyatlarini biling;
- Ish daftarini (kunlik yoki jadvalni) yuriting — unda ishlagan soatlar va olingan ish haqi qayd etilishi kerak.



Qonunga ko'ra, faqat shartnoma asosida ishlashga ruxsat etiladi!

Mehnat shartnomasi:

- Tashkilot hududida, uning uskunalaridan foydalangan holda doimiy ish faoliyati;
- Ish rejimi — haftasiga 40 soat, ya'ni kuniga 8 soat;
- Ish haqi — to'liq ish kuniga oyiga kamida 22 440 rubl.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma (pudrat yoki xizmat ko'rsatish shartnomasi):

- Belgilangan topshiriqni ma'lum muddatda bajarish;
- Ish tartibi — ijrochining ixtiyoriga ko'ra belgilanadi;
- Ish haqi faqat bajarilgan ishni topshirish/qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng to'lanadi.

Ish beruvchi siz uchun soliq to'lashi kerak!

Buning uchun sizda STIR — soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ИНН bo'lishi kerak.

ИНН ni rasmiylashtirish mumkin:



инспекциях Федеральной налоговой службы bo'limlarida
nalog.gov.ru/rn29/apply_fts/
8 (800) 222 22 22



«Мои документы» ko'p funksiyali markazlarida <https://portal.mfc.gosuslugi29.ru/>
8 (800) 600 79 29

Patent bo'yicha soliq chegirmalari

Chet el fuqarosi ishlash uchun patent bo'yicha oyiga 5292 rubl miqdoridagi to'lovlarni, ish beruvchi tomonidan daromad solig'i (НДФЛ), sifatida ushlab qolinadigan oyma-oy soliq to'lovlariga kiritishi mumkin.

Soliqni ikki marta to'lamaslik uchun, ish beruvchiga patent bo'yicha avans to'lovlari summasiga soliqni kamaytirish haqidagi ariza topshirish lozim.

Patent bo'yicha soliq to'lovlarini hisobga olish uchun ariza shakli:



data.nalog.ru/html/sites/www.new.nalog.ru/doc/pril_fns512_131115.pdf

Mehnat huquqlarini himoya qilish

Agar ish beruvchi bilan nizoli holat yuzaga kelsa, quyidagi choralarni ko'rish tavsiya etiladi:

- muhim holatlarni audio va video shaklida yozib olish;
- ish beruvchi bilan bo'lgan yozishmalarni (xatlar, xabarlar, chatlar) saqlab qo'yish;
- ish joyidagi fotosuratlar va hujjatlarning nusxalarini saqlash.

Agar ish haqi to'lanmasa, nima qilish kerak

1. Ish beruvchiga yozma ariza bilan murojaat qiling va ish faoliyatingizga taalluqli hujjatlarning nusxalarini talab qiling, masalan: hisob varaqalari (raschet listlari), mehnat shartnomasi, ishdan bo'shatish buyrug'i va boshqalar.
Ish beruvchi ushbu hujjatlarni sizga 3 ish kuni ichida taqdim etishi shart. (ст. 62 ТК РФ).
2. Agar ish beruvchi so'ralgan hujjatlarni taqdim etmasa, Государственную инспекцию труда: ish beruvchi haqida shikoyat arizasi topshirish kerak:
git29.rostrud.gov.ru
телефон: 8 (818) 260 88 70
3. Jarimalar noqonuniydir. Xodim o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda, unga ogohlantirish berilishi yoki ishdan bo'shatilishi mumkin, lekin jarima qo'llash taqiqlanadi (ст. 192 ТК РФ).
4. Agar ish haqi 15 kundan ortiq kechiktirilsa, xodim yozma ariza asosida ishga chiqishni to'xtatib turishi mumkin — qarz to'liq to'languncha (ч.2 ст.142 ТК РФ).

5. Ish beruvchiga ish haqi bo'yicha qarzni to'lash haqida da'vo (pretensiya) yozish mumkin — bu murojaat shaxsiy yoki jamoaviy bo'lishi mumkin.
6. Agar ish beruvchi da'voga javob bermasa, sudga (sudrf.ru) yoki prokuraturaga murojaat qilish kerak.
7. Davlat mehnat inspeksiyasi ish beruvchini ish haqi qarzlarini to'lashga majbur qilishi mumkin, agar sizda rasmiy mehnat shartnomasi mavjud bo'lsa.
8. Agar ish haqi 3 oydan ortiq vaqt davomida to'lanmasa, bu haqda Следственный комитет РФ xabar berish zarur: spb.sledcom.ru

Mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha batafsil ma'lumot migrussia.ru saytining «Советы мигрантам». bo'limida mavjud.

SOG'LIQ VA TA'LIM

Tibbiy yordam olish



Shoshilinch va tez tibbiy yordam barcha fuqarolarga bepul ko'rsatiladi — hatto hujjatlar bo'lmasa ham, agar hayot yoki sog'likka xavf tug'lsa: masalan, jarohat, kuchli og'riq, zaharlanish holatlarida.

Tez yordam chaqirish telefon raqamlari: **103 yoki 112.**

Barcha chet el fuqarolari — kattalar ham, bolalar ham — amal qiluvchi tibbiy sug'urta polisiga ega bo'lishlari shart: bu ixtiyoriy tibbiy sug'urta ДМС yoki majburiy tibbiy sug'urta ОМС bo'lishi mumkin.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС):

Narxi ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar hajmi va turiga bog'liq.

Majburiy tibbiy sug'urta polisi (ОМС):

Bu polis davlat tomonidan bepul tibbiy yordam olish huquqini beradi.

ОМС polisini quyidagi shaxslar olishi mumkin:

- Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlari fuqarolari — Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston — mehnat shartnomasi amal qilish muddati davomida
- Vaqtinchalik yashash ruxsatiga (ВП)ega chet el fuqarolari
- Doimiy yashash guvohnomasiga (ВНЖ)ega chet el fuqarolari
- Qochqinlar va vaqtincha boshpana olgan shaxslar
- Patent asosida ishlovchi shaxslar, agar ular 3 yil davomida uzluksiz rasmiy ishlagan bo'lsa va barcha majburiy soliqlarni to'lagan bo'lsa

ОМС polisini yashash joyidagi poliklinikada rasmiylashtirish mumkin.

8 (800) 100 11 29 — горячая линия территориального отделения фонда ОМС по Архангельской области

Bolalar uchun ta'lim

- 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga ishlash taqiqlanadi!
- Bola ota-onasi bilan bir manzilda migratsiya hisobida (ro'yxatda) bo'lishi kerak.
- Bolaning ro'yxatdan o'tish muddati ota-onalarining ro'yxat muddati bilan bir xil muddatga uzaytiriladi.

Bolalar bog'chasi



Chet el fuqarolari bo'lgan bolalar bo'sh o'rinlar mavjud bo'lsa, bolalar bog'chasiga borish huquqiga ega.

Hujjat topshirish tartibi:

- Oldindan murojaat qiling: qabul fevral–aprel oylarida keyingi o'quv yili uchun amalga oshiriladi;
- Ota-onalarining migratsiya hisob manzili (ro'yxati) bo'yicha murojaat qiling;
- Murojaat joyi:

8 (800) 600 79 29 <https://portal.mfc.gosuslugi29.ru/>

Bolalar bog'chasiga hujjatlar ro'yxati:

- Bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va uning nusxasi;
- Bolaning migratsiya kartasi;
- Bolaning ota-onasi yashaydigan manzil bo'yicha migratsiya hisobiga qo'yilganligi haqida bildirishnoma;
- Bolaning tibbiy sug'urta polisi;
- Tibbiy xulosa – bola tibbiy ko'rikdan o'tganligi va xavfli kasalliklarga ega emasligi to'g'risida
- (ko'rik maxsus tibbiy muassasalarda o'tkaziladi);
- Ota-onalardan birining pasporti va pasport nusxasi;
- Ota-onalardan birining migratsiya kartasi va uning nusxasi;
- Ota-onalardan birining migratsiya ro'yxati haqida bildirishnoma va uning nusxasi.

Maktab



Maktab yoshidagi bolalar qonun bo'yicha majburiy tarzda ta'lim olishi kerak.

Davlat maktablarida o'qish bepul.

Hujjat topshirish tartibi:

- Oldindan murojaat qiling: 1-sinfga — 1-fevraldan boshlab, boshqa sinflarga — 1-apreldan boshlab.
- Ota-onalarining migratsiya hisob manzili (ro'yxati) bo'yicha murojaat qiling

Qayerga murojaat qilish kerak:

- 1-sinfga yozilish — МФЦ «Мои документы» ko'p funksiyali markazi orqali
- Boshqa sinflarga yozilish — maktab orqali yoki tuman xalq ta'limi bo'limlari orqali

Bolani maktabga joylashtirish uchun hujjatlar ro'yxati:

- Ota-ona (ariza beruvchi) va bolaning pasportlari, shuningdek ularning notarial tasdiqlangan rus tilidagi tarjimalari.
- Bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va uning notarial tasdiqlangan rus tilidagi tarjimasi.
- Arxangelsk viloyatida ota-ona (ariza beruvchi) va bolaning migratsiya ro'yxati (hisobi) haqida bildirishnoma.

Bola va ota-ona (ariza beruvchi) bir manzilda ro'yxatdan o'tgan va yashayotgan bo'lishi kerak — maktab joylashgan tuman doirasida.

- Ota-ona va bolaning daktiloskopik kartasi (barmoq izi kartasi)
- Ota-ona va bolaning migratsiya kartasi
- Bolaning tibbiy kartasi (maktabga kirish uchun) — tibbiyot muassasalarida rasmiylashtiriladi
- Emlash sertifikatini va emlashlar to'g'risidagi

ma'lumotnoma (vypiska) — majburiy emlash talablari tibbiyot muassasalarida aniqlashtiriladi

- Tibbiy sug'urta polisi (agar mavjud bo'lsa)

Shuningdek, oilaning Rossiya hududida qonuniy yashayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari talab etiladi.



Maktabga kirish uchun bola rus tili bo'yicha test topshirishi shart!

Testga yo'llanma maktab tomonidan hujjatlar tekshirilgandan va bolani Rossiya hududida qonuniy yashash holati tasdiqlangandan so'ng beriladi.

Yo'llanmani olganidan keyin 7 ish kuni ichida ota-onalar tuman test markaziga murojaat qilishlari kerak, u yerda ularga test o'tkazish sanasi va vaqti haqida ma'lumot beriladi.

Test o'tkazish qoidalarini va mazmuni haqida ma'lumot:

<https://fipi.ru/inostr-exam/inostr-exam-deti>

Rus tilini o'rganish uchun o'quv materiallari va qo'llanmalar migrussia.ru saytining «Полезные материалы». bo'limida mavjud.



Agar test muvaffaqiyatli topshirilsa, bolani bolalar bog'chasi yoki maktabga qabul qilishdan qonuniy asos bilan rad etish sababi faqat sinflarda joy yo'qligi bo'lishi mumkin.

Agar maktabga kirishda muammolar yuzaga kelsa, qayerga murojaat qilish kerak:

- Комитет по образованию Архангельской области
<https://www.arkh-edu.ru/>
- Уполномоченный по правам ребенка в Архангельской области
<https://deti.dvinaland.ru/> тел. 8 8182 28 81 71

QONUNCHILIKNI BUZGANI UCHUN JAVOBGARLIK

Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlarini buzganlik uchun chet el fuqarolari qat'iy javobgarlikka tortiladi.

Agar siz:

- vositachilar orqali soxta hujjatlar olgan bo'lsangiz
- migratsiya ro'yxati (hisobi)ni 30 kundan ortiq muddatda yangilamagan bo'lsangiz
- biometrik ro'yxatdan o'tmagan yoki tibbiy ko'rikdan o'tmagan bo'lsangiz
- soliqlarni, to'lovlarni yoki jarimalarni to'lamagan bo'lsangiz
- 3 yil ichida ikki yoki undan ortiq jarima olgan bo'lsangiz
- 1 yil ichida ikki marta migratsiya qoidalarini buzgan bo'lsangiz

**→ unda sizga Rossiyaga kirish
3 yildan 10 yilgacha taqiqlanishi mumkin**

Nazorat ostidagi shaxslar reestri

Rossiya Federatsiyasi hududida qonunni buzgan chet el fuqarolari Реестр контролируемых лиц kiritiladi va mamlakatdan chiqarib yuborilishi (deportatsiya qilinishi) mumkin.

Bunday shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

- oyiga 30 000 rubl miqdoridan ortiq daromad olish
- avtomobil boshqarish
- nikoh tuzish
- ishlash
- yashash manzilini o'zgartirish

O'zingizni Реестр контролируемых лиц tekshirish mumkin bo'lgan manzil:



<https://мвд.рф/rkl>

Горячая линия ПБС МВД России по вопросам Реестра контролируемых лиц: **8 (800) 200 52 09**

Rossiyani tark etgan qonunbuzar shaxslar Rossiya Federatsiyasiga kirishi taqiqlangan shaxslar ro'yxatiga kiritiladi ("qora ro'yxat").



<https://сервисы.гувм.мвд.рф/entry-ban>

Qonunni buzgan shaxslarning to'liq ro'yxati Пограничной службы ФСБ России tasarrufida saqlanadi.



<http://ps.fsb.ru/fps/contact/departement.htm>

Rossiyaga kirish taqiqlanishi va nazorat ostidagi shaxslar ro'yxatiga kiritilishni qanday shikoyat qilish mumkin.

Shikoyat qilish asoslari:

- Rossiyada og'ir kasal qarindoshga qarash;
- Kasallik tufayli mamlakatni tark eta olmaslik;
- Yaqin qarindoshlar (er, xotin, farzandlar, ota-onalar) — Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bo'lishi;
- "Migratsion amnistiya" — Rossiya Prezidenti farmoni yoki davlatlararo bitim asosida, ularning amal qilish muddati davomida;
- Noto'g'ri (xatolik bilan) qabul qilingan qaror;
- Rossiyaga kirish taqiqi muddati tugashi;
- Kirish taqiqiga sabab bo'lgan omillar bartaraf etilishi
- Rossiya Qurolli Kuchlari safida shartnoma asosida harbiy xizmat o'tash.

Nima qilish kerak

- ГУВМ МВД РФ -ga shikoyat yuboring:
https://мвд.рф/request_main (Shikoyatingizni tasdiqlovchi barcha hujjatlarni ilova qiling.)
- МВД России qarorini sud orqali ham shikoyat qilish mumkin

Administrativ javobgarlik

Quyidagi huquqbuzarliklar uchun:

- zarur hujjatlarsiz yoki patentda ko'rsatilmagan mutaxassislik bo'yicha ishlash;
 - migratsiya ro'yxatidan o'tish yoki uni uzaytirish muddatini buzish;
 - tekshiruv paytida zarur hujjatlarning yo'qligi.
- jarima 2 000 dan 5 000 rublgacha!**

Shuningdek, jarima belgilanadi:

- vandalizm uchun;

- mayda bezorilik uchun;
- yo'l harakati qoidalarini buzish uchun;
- SIM-kartani boshqa shaxsga (yaqin qarindoshlardan tashqari) doimiy foydalanish uchun berish hollari uchun;
- va boshqa huquqbuzarliklar uchun.



3 yil ichida ikki marta ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish Rossiyaga kirishni 3 yilga taqiqlanishiga olib keladi.

Jinoiy javobgarlik

Quyidagi jinoyatlar uchun:

- soxta hujjatlardan foydalanish yoki ularni tayyorlash
- Rossiyaga noqonuniy kirish
- giyohvandlik moddalarini tarqatish
- o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, zo'rlash, qotillik va boshqa jinoyatlar

→ **jarima 500 000 rublgacha, ozodlikdan mahrum etish, migratsiya hujjatlarini bekor qilish va Rossiyaga kirishni taqiqlash bilan jazolanadi**

Vositalar (po'svetniklar) xizmatidan foydalanmang! Ular bergan hujjatlar soxta bo'lishi mumkin, bu esa sizni jinoiy javobgarlikka olib keladi!



Agar siz jinoyat guvohi yoki jabrlanuvchisi bo'lsangiz — darhol xabar bering: **02, 102, 112**

Ehtiyot bo'ling: ekstremizm va terrorism

Quyidagi harakatlar jinoyat hisoblanadi:

- terrorchi va ekstremistlarni har qanday shaklda qo'llab-quvvatlash (axloqiy, axborot, moliyaviy va boshqalar);
- millatlararo adovatni targ'ib qilish;

- diniy ustunlik va "muqaddas urush"ni targ'ib qilish;
- terrorchilik harakatlarini tashkil etish yoki ularda ishtirok etish.

→ **Jazo: umrbod ozodlikdan mahrum etish, katta miqdorda jarimalar, Rossiya fuqaroligidan mahrum etish, umrbod Rossiyaga kirishni taqiqlash.**

- Terrorchilik faoliyatiga jalb qilish (verbovka, targ'ibot, o'zga shaxsni undash) — 5 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish va 1 million rublgacha jarima.
- Terrorchilikni targ'ib qilish yoki oqlash — 1 million rublgacha jarima yoki 2 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum etish.
- Terrorchilik harakati (portlash, yondirish, aholini qo'rqituvchi harakatlar, davlat idoralarini portlatish) — 20 yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish.

POLITSIYA BILAN MULOQOT

Doimo o'zingiz bilan olib yuring:

- pasport
- migratsiya kartasi
- biometrik ro'yxatga olish kartasi
- migratsiya ro'yxati (ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi bildirishnoma)
- patent (YeOI fuqarolaridan tashqari)

Tekshiruvda so'ralishi mumkin:

- amal qilayotgan tibbiy sug'urta polisi (ДМС yoki ОМС)
- ish patenti bo'yicha to'langan avans soliq to'lovlari kvitansiyalari

Politsiya xodimi familiyasi, lavozimi, unvoni va tekshiruv sababini aytishi, shuningdek xizmat guvohnomasini ko'rsatishi shart (п. 4 ст. 5 закона «О полиции»).

Politsiyaga hurmat bilan, xotirjam ohangda murojaat qiling. Xodim baqirish, haqorat qilish yoki ayblash huquqiga ega emas.

Har bir xodimda raqamli ko'krak nishoni bo'ladi — uning raqamini yozib oling.

Agar politsiya xodimi noqonuniy harakat qilsa, siz quyidagi raqamlarga murojaat qilishingiz mumkin:

- **112, 102**
- оперативно-разыскная часть собственной безопасности УМВД России по Архангельской области: **телефон 8 (818) 221 71 05**
- Прокуратура Архангельской области и Ненецкого автономного округа: **8 (818) 245 45 45**
- Следственный комитет: **8 (818) 223 83 31**

ROSSIYADA HAYOT

Arxangelsk viloyati aholisi — mehmondo'st va ochiqko'ngil insonlar.

Yordam so'rashdan uylanmang va tortinmang.

Xulq-atvor qoidalar

Shaharda quyidagi harakatlar odobga zid va nomaqbul hisoblanadi:

- jamoat joylarida katta guruh bo'lib to'planish;
- kir, iflos kiyimda yurish;
- begonalar bilan “sen” deb murojaat qilish;

- begonaga teginish yoki qo'l tekkizish;
- axlatni chelakdan tashqariga tashlash, tupurish;
- musiqani baland eshitish yoki videoni naushniksiz tomosha qilish;
- telefon orqali baland ovozda (gromkaya svyaz) gaplashish;
- ibodat, namoz yoki diniy marosimlarni jamoat joylarida o'tkazish.

Jamoat tartibini buzish taqiqlanadi:

- ommaviy tartibsizliklar yoki mushtlashuvlar tashkil etish;
- “tinchlik soatlari”da shovqin qilish — 22:00 dan 8:00 gacha;
- jamoat joylarida chekish yoki spirtli ichimlik ichish;
- jismoniy (urish) yoki ruhiy (haqorat, qo'pollik, kamsitish) zo'ravonlik qilish;
- soxta nikoh (fiktsiya) tuzish yoki ko'p xotinlilik.

→ **Bunday harakatlar uchun jazo choralari belgilangan: jarima, 15 sutkagacha qamoq, ozodlikdan mahrum etish yoki hatto Rossiyadan chiqarib yuborish (deportatsiya)!**

Arxangelsk viloyati haqida

Arxangelsk shahri Uzoq Shimol hududlariga tenglashtirilgan. Iqlimi o'rta dengiz tipida, sokin sovuq qish va qisqa salqin yoz bilan tavsiflanadi. Shaharda tez-tez ob-havo o'zgarishi, yuqori namlik va ko'p yomg'irli kunlar kuzatiladi. Arxangelsk — Rossiyaning shimoli-g'arbiy qismidagi yirik tarixiy, sanoat va ilmiy markaz. Bu yerda o'rmonni qayta ishlash, sellyuloza-qog'oz, baliq va kimyo sanoati rivojlangan. Shuningdek, Arxangelsk Pomorye mintaqasining madaniy va tarixiy poytaxti, pomor xalqining

madaniyati, anʼanalari va tarixi markazi hisoblanadi.

Arxangelsk viloyati boʻyicha sayohat qoʻllanmasi:

<https://pomorland.travel/about-the-region/>

Boʻsh vaqtingizda teatrlar, muzeylar, konsertlarga borishingiz tavsiya etiladi:

- Театр Драмы имени М.В.Ломоносова
<http://www.arhdrama.ru>
- Поморская филармония <http://www.pomorfil.ru>
- Музей художественного освоения Арктики им.А.А. Борисова <http://www.arhmuseum.ru/museums/view/6>,
<https://vk.com/arhmuseum.borisov>
- Архангельский музей изобразительных искусств, Дом-музей С.Г.Писахова
<http://www.russianmuseums.info/M1444>
- Музей деревянного зодчества Русского Севера под открытым небом «Малые Корелы»
<http://www.korely.ru>
- Архангельский краеведческий музей
<https://kraeved29.ru/>
- Северный морской музей <https://northernmaritime.ru/>

Bayramlar va xotira kunlari

Rossiyada davlat, diniy va xalq bayramlari nishonlanadi. Ularning koʻpchiligi ishlanmaydigan (dam olish) kunlar hisoblanadi.

• Новый год

31 dekabr kechasidan 1 yanvarga oʻtar tun nishonlanadi. Uyda archa bezatiladi, ostiga sovgʻalar qoʻyiladi, bayramona taomlar tayyorlanadi. Bu oilaviy

bayram sanaladi: odamlar mehmon boʻlib borishadi yoki mehmon kutishadi, bolalar esa yangi yil ertaliklari va konsertlariga boradilar, ularni Ded Moroz va Qor qiz (Snegurochka) tabriklaydi.

• Православное Рождество

7 yanvar kuni nishonlanadi. Bu kunda pravoslav nasroniylar Iso Masihning tugʻilgan kunini bayram qilishadi. Cherkovlarda bayramona diniy xizmatlar oʻtkaziladi

• Масленица

Bu xalq bayrami qish bilan xayrlashish va bahorni kutib olish tantanasidir. U Pravoslav Buyuk roʻzasidan oldingi soʻnggi haftada oʻtkaziladi. Bu davrda yarmarkalar, xalq sayillari boʻlib oʻtadi, odamlar quyosh ramzi boʻlgan blinlar (quymoq) pishiradilar va bir-birlarini mehmon qilishadi.

• День защитника Отечества

23 fevral kuni nishonlanadi. Ilgari bu Sovet armiyasi kuni edi. Bu kunda ayollar erkaklarni – harbiy yoki oddiy fuqarolarni tabriklab, sovgʻalar berishadi.

• Международный женский день

8 mart kuni nishonlanadi. Erkaklar ayollarni tabriklab, gul va sovgʻalar taqdim etishadi.

• Пасха

Bu bayram Iso Masihning tirilishiga bagʻishlangan. Bayram sanasi oy-quyosh taqvimiga qarab belgilanadi. Cherkovlarda ibodatlar, diniy yurishlar (Krestniy xod) oʻtkaziladi. Nasroniylar bir-birini “Xristos voskrese!” – “Voistinu voskrese!” deb tabriklaydilar. Odatda tuxumlar boʻyaladi, kulichlar pishiriladi, tvorogli pasxa

tayyorlanadi va ularni cherkovda muqaddaslanadi.

- **Праздник Весны и Труда**

1 may kuni nishonlanadi. Ilgari bu Xalqaro mehnatkashlar birdamlik kuni edi..

- **День Победы**

9 may kuni nishonlanadi — 1941–1945-yillardagi Buyuk Vatan urushidagi g'alaba sharafiga. Butun mamlakatda xotira tadbirlari, guldasta qo'yish marosimlari o'tkaziladi, Moskvada esa G'alaba paradi bo'lib o'tadi.

- **День России**

12 iyun kuni nishonlanadi. Bu kunda 1990-yilda Rossiya davlat suvereniteti deklaratsiyasi qabul qilingan. Mamlakat bo'ylab bayram tadbirlari va konsertlar o'tkaziladi.

- **День Знаний**

1 sentyabr kuni — yangi o'quv yili boshlanishi. Maktab o'quvchilari va talabalar darsni boshlaydilar, odatga ko'ra o'qituvchilar va o'quvchilar tabriklanadi, ularga gul sovg'a qilinadi.

- **День народного единства**

4 noyabr kuni nishonlanadi. Bayram 1612-yilda Minin va Pojarskiy boshchiligidagi xalq lashkari tomonidan. Moskva Kremlidan polyak bosqinchilarini quvib chiqarganlik sharafiga o'tkaziladi. Bu kunda konsertlar va boshqa bayram tadbirlari o'tkaziladi.

Arxangelsk viloyatidagi bayram kunlari

(Mahalliy hukumat tomonidan belgilanadigan mintaqaviy bayramlar shu yerda keltiriladi.)

- День многодетной семьи — 19 март

- День Устава Архангельской области и символов Архангельской области (герба, флага и гимна) — 23 мая
- День города Архангельска — последнее воскресенье июня
- День арктических экспедиций — 10 июл
- День северных конвоев — 31 август
- День государственного судостроения — 16 сентябр
- День образования Архангельской области — 23 сентябр
- Маргаритинская ярмарка — последняя декада сентября
- День М.В. Ломоносова — 19 ноября
- День присвоения городу Архангельску почетного звания Российской Федерации «Город воинской славы» — 5 декабр
- День Архангелогородской губернии — 30 декабр.

FOYDALI ALOQA MANZILLARI

Muammolar yuzasidan murojaat qilish joylari:

- Управление по вопросам миграции (УВМ) УМВД России по Архангельской области
29.mvd.rf/ms
- Телеграм-канал МВД России «Миграционный пост»
<https://t.me/s/migrpost>
- Портал «Миграция и мигранты»
<https://migrussia.ru/>
- База вакансий «Работа России»
<https://trudvsem.ru/>

Карманная книжка трудового мигранта
полезная информация для иностранных граждан
(на русском и узбекском языке)

Подготовка текста:
БФ «ПСП»

Автор-составитель: Якимов А.Н.
Редактор: Панич Б.Л.
Верстка, дизайн: Салим Д.А.

Изготовлено в рамках реализации мероприятий,
направленных на содействие адаптации иностранных
граждан, находящихся на территории Архангельской
области, при поддержке Федерального агентства
по делам национальностей, администрации
Губернатора Архангельской области и Правительства
Архангельской области, регионального отделения
Общероссийской общественной организации
«Ассамблея народов России» в Архангельской области.

Подписано в печать:
Тираж 1 000 экз. Заказ №
Отпечатано в ООО «Типография Лесник»
г. Санкт-Петербург, Сабиловская ул., д. 37, лит. Д, к. 206